O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA SOLIQ QONUNCHILIGINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL VA MILLIY SOLIQ HUQUQI DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Turdiyeva Diyora Solijon qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti, magistratura talabasi

imrconf.com

Annotatsiya: *Ushbu tezisda O‘zbekiston Respublikasi va Buyuk Britaniya soliq tizimlarining konstitutsiyaviy asoslari qiyosiy-huquqiy nuqtai nazardan tahlil etilgan. Soliq adolatliligi, qonuniylik va soliq to‘lovchining haqligi prezumptsiyasi kabi fundamental tamoyillarning ikki davlat huquqiy tizimidagi o‘rni o‘rganilgan. Milliy soliq huquqi doktrinasini takomillashtirish yo‘llari bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *soliq konstitutsionalizmi, fiskal hisobdorlik, soliq aniqligi, qiyosiy huquqshunoslik, HMRC, soliq to‘lovchi huquqlari, Tax Certainty.*

Kirish.

2023 yilda qabul qilingan yangi tahrir O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida “soliqlar adolatli bo‘lishi va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to‘sqinlik qilmasligi kerak” degan norma mustahkamlandi. Ushbu konstitutsiyaviy yangilik soliq huquqi doktrinasini konseptual jihatdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Shu bilan birga, O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayoni milliy soliq qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish zaruriyatini belgilab bermoqda.

Buyuk Britaniyaning “yozilmagan konstitutsiya” tizimida asrlar davomida shakllangan “No taxation without representation” tamoyili, soliq to‘lovchilar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ko‘p asrlik pretsedentlar va

HMRC tajribasi O‘zbekiston uchun muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu asosdan kelib chiqib, tadqiqotning asosiy maqsadi ikki davlat soliq qonunchiligining konstitutsiyaviy asoslarini qiyosiy tahlil qilish va milliy doktrinani takomillashtirish yo‘llarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning asosiy natijalari.

1. Soliq konstitutsionalizmining nazariy asoslari.

Tadqiqot davomida “soliq konstitutsionalizmi” (fiscal constitutionalism) tushunchasi O‘zbekiston soliq huquqi doktrinasi uchun yangi konseptual kategoriya sifatida asoslab berildi. J.Byukenanning fiskal konstitutsionalizm nazariyasiga ko‘ra, davlatning moliyaviy “ishтahasini” jilovlash va soliq solish jarayonini konstitutsiyaviy cheklovlar doirasiga solish zarurati mavjud [Buchanan, 1975]. Ushbu yondashuv O‘zbekiston Konstitutsiyasining 1-moddasida davlatning “ijtimoiy davlat” sifatida e‘lon qilinishi bilan organik bog‘liqdir: soliq endi shunchaki majburiy to‘lov emas, balki davlat va fuqaro o‘rtasidagi ijtimoiy-huquqiy kelishuv ifodasidir.

O‘zbekiston (kodifikatsiya qilingan konstitutsiyaviy tizim) va Buyuk Britaniya (“yozilmagan konstitutsiya” tizimi) soliq modellarini solishtirish uchun funktsional ekvivalentlik metodi qo‘llanildi [Zweigert, Kötz, 1998]. Natijada aniqlandi: O‘zbekistonda Konstitutsiyaning aniq moddasi bajaradigan funktsiyani Britaniyada Bill of Rights 1689 va Magna Carta 1215 kabi tarixiy hujjatlar hamda sud pretsedentlari bajaradi.

2. Soliq to‘lovchi huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlari.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, Britaniyaning “Taxpayers’ Charter” instituti soliq to‘lovchi va davlat o‘rtasidagi “ishonch kelishuvi” vazifasini o‘taydi. Unda adolatli munosabat, to‘g‘ri va aniq ma‘lumot olish va maxfiylik kabi yetti asosiy kafolat belgilangan [HMRC Charter, 2023-24]. O‘zbekiston Soliq kodeksining 13 va 21-moddalarida mustahkamlangan kaфolatlar bilan solishtirish asosida quyidagi farq aniqlandi: Britaniyada ushbu huquqlar

imrconf.com

nafaqat qonun, balki “konstitutsiyaviy konventsiyalar” bilan himoyalangan bo‘lib, ularning kuchi sudda pretsedent darajasiga ko‘tarilgan.

Shyningdek, Britaniya sud amaliyotidagi “soliq noaniqliklarini soliq to‘lovchi foydasiga talqin qilish” tamoyili (Cape Brandy Syndicate v IRC, 1921) O‘zbekiston Soliq kodeksidagi “haqligi prezumptsiyasi” printsipi bilan мантiqan mushtarakdir. Biroq, O‘zbekiston sud amaliyotida bu prinsipning qo‘llanilishi hali ham ижро hokimiyatining idoraviy hujjatlariga tayanish tendentsiyasini saqlab qolmoqda.

3. “Soliq aniqligi” prinsipining ahamiyati.

Tadqiqot davomida O‘zbekiston soliq qonunchiligidagi tez-tez o‘zgarishlar muammosi Britaniyaning “Budget conventions” tizimi bilan qiyosiy o‘rganildi. OECD/IMF (2024) ma‘lumotlariga ko‘ra, soliq aniqligini ta‘minlash bevosita investitsiya muhitiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi [OECD, 2024]. O‘zbekiston uchun bu borada asosiy taklif sifatida quyidagi yondashuv ilgari surildi: soliq yukini oshiruvchi qonunlar kamida 6-12 oy oldin e‘lon qilinishi va “o‘tish davri” belgilanishi shart. Bu taklif Konstitutsiyaning 63-moddasidagi “adolat” talabi va 54-moddasidagi mulkiy huquq kafolatiga asoslanadi.

4. HMRC modeli va soliq organlarini isloq qilish.

Britaniya HMRC tajribasi tahlili shuni ko‘rsatdiki, soliq ma‘muriyati “nazorat organi” modelidan “fiskal xizmat va hisobdorlik” modeliga o‘tishi mumkin va kerak. Ushbu modelda “Making Tax Digital” dasturi orqali to‘liq raqamlashtirilgan soliq ma‘muriyatchiligi fuqaroga qulay, xatolarni HMRC tomonidan qoplanadigan tizimni shakllantirgan [James, Edwards, 2022]. O‘zbekistonda “soliq-servis” DUK va my.soliq.uz portali orqali amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya shu yo‘nalishda muhim qadamdir. Biroq asosiy farq qolmoqda: O‘zbekiston modelida nazorat funksiyasi, Britaniyada esa “self-assessment” va maslahat ustuvorlik qiladi.

imrconf.com

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan qiyosiy-huquqiy tadqiqot asosida O‘zbekiston soliq huquqi doktrinasini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ilmiy asoslangan takliflar ilgari surildi:

1. “Fiskal konstitutsionalizm” atamasini milliy huquqiy tilga kiritish va uni Soliq kodeksi preambulasida mustahkamlash;

2. Soliq yukini oshiruvchi normalar uchun majburiy “o‘tish davri” institutini joriy etish orqali “soliq aniqligi” prinsipini konstitutsiyaviy darajada himoyalash;

3. Soliq organlarining huquqiy maqomini “nazorat qiluvchi organ” dan “konstitutsiyaviy servis organi” ga o‘zgartirish va ma‘muriy javobgarlik mexanizmini kuchaytirish;

4. Sud organlariga soliq nizolarida “mutanosiblik printsipi” ni qo‘llash bo‘yicha aniq yo‘riqnoma ishlab chiqish;

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi O‘zbekistonning xalqaro soliq standartlariga integratsiyasini tezlashtiradi, soliq to‘lovchilarning konstitutsiyaviy huquqlarini mustahkamlaydi va davlatga bo‘lgan institutsional ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

imrconf.com

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Buchanan J.M. The Limits of Liberty. — University of Chicago Press, 1975.
2. Dicey A.V. Introduction to the Study of the Law of the Constitution. — London: Macmillan, 1915.
3. Tiley’s Revenue Law. 10th ed. — Oxford: Hart Publishing, 2022.
4. OECD/IMF Report, ‘Tax Certainty’, 2024.
5. HMRC Charter: Annual Report 2023–24. — www.gov.uk.
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent, 2023.
7. Freedman J. Tax Certainty and the Rule of Law // British Tax Review. — 2021. — No. 3.